

LYAMBLIOZ VA TRIXOMONOZNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Dolimov X.X.

O'zResFAA mustaqil tadqiqotchisi

Dolimova U.A., Xo'jayusupov S.N., Ma'murova S.F.

Farg'ona Davlat Universiteti talabalari

Lyamblioz - ichaklar, o't yo'llari, o't qopchasi, jigar va boshqa organlarning lyambliyalaridan zararlanishi bilan xarakterlanadigan kasallik. Shilliq pardaga so'rilib, bu sodda jonivorlar ularning yallig'lanishini qo'zg'atadi. Lyambliozni davolash uchun lyambliyalarining rivojini to'xtatadigan akrixin, metronidazoldan foydalaniladi.

Trixomonoz - ayollar qini va siydik yo'llari, erkaklar siydik chiqarish kanali, urug' pufakchalari va prostate beziga trixomonadalar yuqanda paydo bo'ladigan kasallik. Kasallik tashqi jinsiy organlar sohasida qichishish, peshob qilishda og'riq paydo bo'lishi, jinsiy organlardan yiringsimon ajralmalar chiqishi bilan o'tadi. Trixomonadaga qarshi vositalarga furazolidin, metronidazole, nitazol, trixomonanid kiradi.

Kasallikning jinsiy yaqinlikda yuqishi sababli uni venerik kasalliklar qatoriga kiritiladi.

Dori vositalar ta'sirida klinik manzara yaxshilanadi, qindan chiqarilgan ajralmalar keskin kamaydi, qichima esa to'xtaydi. Preparatlar bilan davolashni maxalliy muolajalar, qinga dori moddalarga (borat kislota, achchiqtosh, glitserin va boshqalar) shimdirilgan tamponlar kiritish bilan qo'shib olib boriladi.

Furazolidon (furazolidonum). Tabletkalarda 0,05 g dan chiqariladi. Trixomonad kolpitda ichishga 0,1 g dan kuniga 8-4 marta 3 kungacha tayinlanadi. Ayni vaqtda qinga 5-6 g furazolidon poroshogini sut qandi bilan 1:400-1:500 nisbatda, to'g'ri ichakka 0,004-0,005 g preparat saqlagan shamchalar kiritiladi. Bu muolajani 1-2 hafta takrorlanadi.

Lyambliozda furazolidon ichishga 0,1 g dan kuniga 4 marta tayinlanadi. 1:25000 nisbatda suyultirilgani kuyishga va jarohat infeksiyalariga davo qilishda purkash uchun nam bog'lamlar holida ishlatiladi.

Ishlatib bo'lmaydigan hollar: buyrak kasalliklari, preparatga idiosinkraziya borligi.

Metronidazol o'tkir va xronik trixomonozga davo qilish uchun 0,25 g dan kuniga 2 marta 10 kungacha ovqat vaqtida yoki ovqatdan keyin tayinlanadi. Ayollarga ayni vaqtda ichish bilan birga 4-6 haftagacha qin shamchalari tayinlanadi.

Lyambliozga davo qilish uchun metronidazol 0,25 g dan 5 kun mobaynida 2 martadan tayinlanadi.

Akrixin (Akrichinium). Poroshok va sariq tabletkalarda bolalarga 0,05 g dan va kattalarga 0,1 g dan na draje hoida 0,05 g dan chiqariladi.

Lyamblioz, bezgak, qizil volchanka, teri leyshmaniozi, psoriazga davo qilish uchun qo'llaniladi.

Ichishga bir qabulga 0,1-0,15 g dan kuniga 3 marta sxema bo'yicha tayinlanadi.

Qo'shimcha hodisalar: teri qoplamalarining sariq rangga bo'yalishi, uyqusizlik, akrixindan bo'ladigan psixozlar. Preparat bekor qilingandan keyin bu hodisalar yo'qoladi.

ADABIYOTLAR:

- 1) "Farmakologiya bilan retseptura" K.X.Postnova
- 2) "Farmakologiya" S.S.Azizova
- 3) "Лекарственные средства" М.Д.Машковский